

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARINING XITOIY TILIGA TARJIMASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-302-308>

Ziyamuxamedov Jasur Tashpulatovich

Filologiya fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

e-mail: jas76@mail.ru

<tel:909020858>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalqining buyuk va betakror yozuvchisi Abdulla Qahhor qalamiga mansub hikolarning xitoy tiliga tarjimasi borasida tahliliy fikrlar yuritiladi. Tarjimalarda duch kelingan muammolar, xususan milliy qadriyatlar, urf-odatlar bilan bog'liq realiyalarning tarjimalari va ularni bartaraf etish bo'yicha tajribalar bilan tanishtiriladi.

Kalit so'zlar: hikoya, realiyalar, tarjima, maqol, ibora, milliy qadriyatlar.

Abstract: This article provides analytical thoughts on the translation of stories by the great and unique Uzbek writer Abdulla Qahhor into Chinese. It introduces the problems encountered in translations, in particular, the translations of realities related to national values and traditions, and experiences in overcoming them.

Keywords: story, realities, translation, proverb, expression, national values.

So'nggi yillarda xitoy tilidan o'zbek tiliga va aksincha o'zbek tilidan xitoy tiliga badiiy adabiyotning turli janrlariga xos bo'lgan asarlarning tarjimalari ko'payib borayotganligi, bugungi kunda o'zbek xitoyshunosligidagi ulkan yutuqlardan biri desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Shu yili o'zbek xalqining buyuk yozuvchisi Abdulla Qahhorning bir necha hikoyasi xitoy tiliga ilk bor tarjima qilindi va kitob shaklida nashr qilindi.

Buyuk yozuvchimiz Abdulla Qahhorning "Adabiyot atomdan kuchli" degan purma'no so'zalri o'zbek adabiyotshunoslari orasida ma'lum va mashhurdir. Adabiyotga e'tibor va e'tirof borasidagi mazkur so'zlar nafaqat milliy adabiyotimizning rivojiga hissa qo'shdi, balki badiiy adabiyotning ulkan va beqiyos kuch-qudrati millatlararo totuvlikni va bag'rikenglikni rivojlantira olajagini ham isbotlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bir necha qarorlarida "yoshlar o'rtasida

kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalarining hamkorligini kuchaytirish, xalqlar o'rtasida do'stlik va madaniy aloqalarni yanada kengaytirish" masalalari ko'p marotaba ta'kidlanib kelinmoqda. [<https://lex.uz/docs/>, 3,4]

Bugungi kunda O'zbekistonda kitob mutolaasiga e'tibor hukumat darajasiga ko'tarilgan dolzarb masalalardan biri ekanligi benihoya quvonarli hol. Barchaga ma'lumki, xalqimiz va yurtimizga do'stona munosabatda hamda strategik hamkor bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasida ham ushbu masalaga befarq emaslar. Xitoyda kitobni va umuman badiiy adabiyotni sevadiganlar nihoyatda ko'p. Xitoydagi keksa avlod vakillari ham, yosh avlod vakillari ham ma'naviy barkamollikka erishish uchun muntazam kitob mutolaasi bilan bandlar. Xitoy Xalq Respublikasining nafaqat kutubxonalrida, balki kattayu-kichik ko'chalrida, xiyobonlarda, istirohat bog'larida, jamoat transportlarida va xatto avtobus va metro bekatlarida ham qo'llarida kitob tutgan va mutolaa qilayotgan yoshu-qarini ko'plab uchratishimiz mumkin. Axir shu emasmi kitobga bo'lgan muxabbat?! Buning isboti sifatida Xitoy jamiyatida oiladagi tarbiya, milliy qadriyatlar, milliy g'urur va milliy iftihar hislarining o'ta yuqori ekanligini, xitoy adabiyotining ko'hna tarixga ega ekanligini, undagi janrlar xilma-xilligi va betakrorligini, badiiy asarlarning chuqur falsafiy ma'no va mazmunga ega ekanligini, jumladan qadimgi xitoy adabiyotidagi "Qizil ko'shkdagi tush", "Daryo o'zanlari", "G'arbga sayohat", "Uchshohlik" kabi nodir badiiy asarlarning xali-xanuz nafaqat xitoylik, balki jahon xalqlarining adabiyot muxlislari tomonidan sevib mutolaa qilinishini, makur kitoblarning qayta-qayta nashr qilinayotganligini, XXXRning kattayu-kichik har bir shahrida barcha qulayliklarga ega bo'lgan ko'plab zamonaviy kitob do'konlarining mavjudligini ko'rsatishimiz mumkin.

"Yangi O'zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi bilan adabiy aloqalari ayni damda rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarilmoqda desak, mutlaq yangilishmagan bo'lamiz. Xitoy adabiyotining turli janrlariga xos bo'lgan asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish va aksincha o'zbek adabiyotining turfa janrlarida yozilgan asarlarni xitoy tiliga tarjima qilish, hamda ularning badiiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish bugungi kunda o'zbek xitoyshunoslarimiz tomonidan katta qiziqish va zo'r g'ayrat bilan amalga oshirilmoqda." [Ziyamuxamedov 2024:46] Mamlakatlarimiz o'rtasidagi adabiy aloqalarimiz uzoq o'tmishlarga borib taqaladi. Masalan, "Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostoni bilan Sharqdagi ko'pgina xalqlar o'rtasida davom qilib kelayotgan adabiy aloqalarni munosib ravishda rivojlantirdi va boyitdi. Dostonda shoirning o'z xalqi, shuningdek, qo'shni—qardosh xalqlarning uzoq tarixga ega bo'lgan boy madaniyati va adabiyotiga bo'lgan katta e'tiqodi yuz ko'rsatadi". [Erkinov 1971: 276]

Endilikda, sharq sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri ko'hna va qadimgi Chin mamlakati, ya'ni Xitoyda ham o'zbek adabiyoti namoyandalarining asarlari tarjima orqali keng tarqalmoqda. Bugungi kungacha o'zbek adabiyotining turli janrlariga mansub qator kattayu-kichik asarlari xitoy tiliga o'girildi. Jumladan, o'zbek xalqining buyuk farzandi, o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, Boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari, xalqimizning sevimli yozuvchilari Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari, Oybekning "Navoiy" romani, O'tkir Hoshimovning "Nur borki soya bor" va "Dunyoning ishlari" asarlari, Abdulhamid Cho'lponning "Xalq" she'ri, o'zbek xalq ertaklaridan namunalar va boshqalar shular jumlasidandir.

Yuqorida tilga olingan tarjima kitobimizda xalqimizning betakror yozuvchisi Abdulla Qahhor qalamiga mansub qator hikolarning tarjimalari xitoylik kitobxonlarga havola etildi. Abdulla Qahhor o'zbek xalqining buyuk yozuvchisi. Uning asarlari mamlakatimizdagi turli avlod vakillari tomonidan birdek sevib o'qiladi va qadrlanadi. Yozuvchi asarlari kirib bormagan o'zbek xonadoni bo'lmasa kerak. Uning hikoyalari umumta'lim maktab darsliklariga ham kiritilgan. Abdulla Qahhor hikoyalarida o'zbek xalqining eng yaxshi jihatlari — sog'lom tafakkuri, hajviylikka yo'g'rilgan hayotiy donoligi namoyon bo'ladi.

O'zbek kitobxonlari Abdulla Qahhor tarjimasida M. Gorkiyning "Mening dorilfununlarim", N. V. Gogolning "Revizor", L. N. Tolstoyning "Urush va tinchlik" romani va boshqa bir qator badiiy asarlarni o'zbek tilida o'qishga muvaffaq bo'lishgan. Ayni paytda Abdulla Qahhor asarlari rus, ukrain, belorus, qozoq, qirg'iz, tojik, qoraqalpoq kabi tillarga, ayrim hikoyalari esa ingliz, nemis, fransuz, chex, polyak, bolgar, rumin, arab, hind tillariga tarjima qilinib, chop etilgan edi. Endilikda, mashhur adibimizning hikoyalarini xitoylik do'stlarimiz o'z ona tillarida, ya'ni xitoy tilida ham mutolaa qilish sharafiga ega bo'ladilar.

Abdulla Qahhorning o'n sakkizta hikoyasi ilk bora o'zbek tilidan xitoy tiliga tarjima qilindi va xitoylik o'quvchi- kitobxonlar e'tiboriga yetkazildi. Kitob Abdulla Qahhorning o'zbek va xitoy tillaridagi qisqacha tarjimai holi bilan boshlanadi. So'ngra yozuvchi hikoyalarining o'zbek tilidagi matni va ularning xitoy tiliga tarjima qilingan matni beriladi. Ushbu kitob ko'pchilikka birdek foydali bo'lish maqsadida matnlarni ham o'zbek, ham xitoy tillarida berildi. Buning asosiy sababi shundaki, mazkur kitobdan nafaqat o'zbek milliy badiiy adabiyotining yurtimizdagi va XXRdagi muxlislari va barcha kitobxonlar, balki, tarjima bilan shug'ullanayotgan bakalavr ta'lim yo'nalishida va magistrlik mutaxassisligida tahsil olayotgan tolibi ilmlar, hamda ko'plab boshqa mustaqil ilmiy tadqiqotchilar ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsinlar. Mazkur kitob o'quvchi va talabalarga

faqatgina tarjima kitobi bo'lib emas, balki xitoy adabiyoti darslarida foydalanish uchun o'ziga xos, maxsus xrestomatiya kitobi bo'lib ham xizmat qiladi.

Bu tarjima kitobi o'zbekistonlik va xitoylik kitobsevar yoshlarni va umuman badiiy adabiyot shaydolarini bir-birlariga yanada yaqinlashtiradi, xalqlarimiz o'rtasidagi o'zaro do'stlik va qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamlaydi. Asosiysi bu kitob kelajakda har ikki mamlakat adabiyotidagi nodir badiiy asarlar har ikki tilga tarjima qilinib, har ikki mamlakat kitobxonlari ilkiga yetib borishi uchun o'ziga xos motivator bo'lib xizmat qiladi. Tarjima oson ish emas. Buni tarjima ishi bilan shug'ullanib ko'rganlar yaxshi biladilar. Har qaysi sohaga aloqador matn tarjimasida albatta o'ziga yarasha murakkabliklar bo'ladi, Jumladan, badiiy adabiyot tarjimasida ham asar muallifi tomonidan berilgan ayrim so'zlar, ayniqsa realiyalar bilan bog'liq terminlar, ularning ekvivalentlarini izlab topish borasida ham bunday qiyinchiliklarga duch kelinadi. Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining sara ijodkorlari orasida millatimizning tarixi, madaniyati va o'ziga xos urf-odatlarini juda chiroyli qilib yoritib bergan ulug' ijodkorlarimizdan biri. Shunday ekan, uning qalamiga mansub hikoyalarda millatimiz, qadriyatlarimiz va dinimizga xos bo'lgan so'zlar o'z o'rnida juda ko'p qo'llanilgan. Hikolardagi bu so'zlarni xitoy tiliga o'girishda esa biz tarjimonlarni ko'p o'ylantirgan va mulohazalarga sabab bo'lgan fursatlar ham bo'ldi. Ayrim realiyalarni tarjima qilishda biz ikki xil yondoshuvni qo'lladik. Avvalo tarjima matnidagi bunday so'zlarni xitoy tilida talaffuz qilinadigan tovushlarga mos iyerogliflarini tanladik, boshqa o'rinlarda esa shu kabi so'zlarni tarjima matnida xitoy transkripsiyasida (tovush harflarida) ham berdik. "Mayiz yemagan xotin" hikoyasidagi [J.Ziyamuxamedov, D. Ismoilova 2025: 151] "paranji" yoki "Dahshat" hikoyasidagi [J.Ziyamuxamedov, D. Ismoilova 2025: 164] "Chachvan" so'zlarini tarjima qilishda biz mazkur so'zlarning xitoy tilidagi tovushlarga moslab iyerogliflar tanlab oldik va matn tarjimasida berdik. Zero, bu so'zlarning xitoy tilida mos ekvivalentlari nafaqat bo'lmaganligi, balki bu kabi kiyim-yoping'ich haqida ham xitoyliklarda tushuncha yo'qligi bois, o'sha so'zlar berilgan betlarning o'zidayoq ushbu terminlarning kengaytirilgan izohini berishga qaror qildik. Masalan matn iqtibosida quyidagicha berildi: 帕兰加 (Paranja): 一种长款的帕兰加, 长度可达 170-180 厘米, 后面还可能有假袖子, 用丝带系在背后, 前面有一块面纱遮住了脸. (Tarjiasi: "Paranji"-uzunligi 170-180 sm gacha bo'lgan uzun yoping'ich-kiyim bo'lib, uning orqa tomonida bog'langan soxta yenglar bo'ladi, oldi tomonida esa ayol yuzini qoplaydigan parda ham bo'lishi mumkin) [J.Ziyamuxamedov, D. Ismoilova 2025: 158], yoki "帕兰加上面穿的一张厚厚的黑色马毛网, 被乌兹别克人称为 chachvan, 被塔吉克人称为 chimmat, 落在女人的脸上和胸部" (O'zbeklar

chachvon, tojiklar chimmat deb ataydigan bu narsa qalin qora ot junidan to‘qilgan to‘r bo‘lib, ayollarning yuzini yopish uchun mo‘ljallangan va ayol kishining yuzi va ko‘kragigacha tushib turgan). [J.Ziyamuxamedov, D. Ismoilova 2025: 172]

Hikoyalarda Islom diniga xos bo‘lgan terminlar ham uchraydi. Masalan: “Bemor” hikoyasidagi ”chillayosin” so‘zini avval transkripsiyada berib, keyin mazkur so‘z nimani anglatishi va u qanday marosim ekanligini matn ostida izohini berishga qaror qildik. Shu kabi holat “Mayiz yemagan xotin” hikoyasidagi “Ashuro kuni” so‘zining tarjimasida ham kuzatildi. Matn osti iqtibosida quyidagicha berildi: “阿舒拉节” (Ashura), 它是伊斯兰教历的 1 月 10 日。在乌兹别克斯坦, 人们也知道并尊重阿舒拉节这一天, 乌兹别克语称之为 «Ashura»。(Islomiy hijriy taqvimining birinchi oy o‘ninchisi kuniga to‘g‘ri keladigan Ashuro bayrami, bu kun haqida O‘zbekistonda ham ma’lum va hurmat qilinadi. U o‘zbek tilida “Ashuro” deb ataladi.) [J.Ziyamuxamedov, D. Ismoilova 2025: 159]

Buyuk yozuvchimizning o‘ziga xos uslublaridan biri shuki, muallif ko‘pincha o‘z hikoyalarini maqol va ibora, yoki she’riy satrlar bilan boshlaydilar. Ma’lumingizkim, har qanday tarjimada uchraydigan yana bir muammolardan biri bu asliyatlardagi maqol va iboralarni tarjima qilishdir. Biz ham ko‘pchilik mahoratli tarjimonlarning tajribalaridan kelib chiqqan holda, bunday vaziyatlarda mazkur maqol va iboralarga xitoy tilida mavjud ekvivalentlarni izlab topishga harakat qildik. Ekvivalentlar topilmagan taqdirda ularni ma’no jihatdan tarjima qilishga urindik. Masalan: yozuvchining “O‘g‘ri” hikoyasi “Otning o‘limi itning bayrami” degan maqol bilan boshlanadi. [J.Ziyamuxamedov, D. Ismoilova 2025: 31] Biz o‘zbek maqolidagi holat mazmunni ifoda etuvchi vaziyatni xitoy xalq maqolidan emas, ”幸灾乐祸” iborasi mazmunidan topdik. Shu sababli tarjimada ushbu xitoycha iborani (成语 Chéngyǔ) qo‘llashni ma’qul deb bildik. Zero bu iboraning mazmuni ham xuddi yuqorida aytgan o‘zbek maqolidagi kabi “boshqalarning ofat va baxtsizliklar — ga duch kelganini ko‘rganda o‘zini baxtli his qilish”ning psixologik holatini anglatadi. Yoki “Bemor” hikoyasi boshidagi [J.Ziyamuxamedov, D. Ismoilova 2025: 27] “Osmon yiroq, yer qattiq” degan o‘zbek xalq maqoliga xitoy tilidagi aynan mos maqolni topdik, ya’ni: ”叫天天不应, 叫地地不闻” “Osmonga baqir, na osmon javob ber 啊 di, erga baqir va na yer eshitmaydi” Ma’nosi shuki, osmonga qancha faryod qilsa ham, yerga qancha iltijo qilsa ham, hech qanday javob yoki yordam ololmaydigan, o‘ta og‘ir ahvolda qo‘lgan odamni tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu adolatsizlikka va umidsizlikka duch kelgan insonning holati, shu vaziyatga mos vaziyatning metaforasidir. Yozuvchi o‘z hikoyalari badiiy tasvir vositalaridan juda unumli foydalangan. Aslida hikoyalarning jonli chiqishi ham aynan ana shunga bog‘liqdir. Abdulla Qahhor har ikki hikoyasida ham o‘zbek xalq

maqollarini qoʻllagan boʻlsada, biz xitoy tiliga oʻgʻirishda birinchi hikoyada ibora, ikkinchi hikoyada esa xitoy xalq maqolini qoʻlladik. Shunday qilsakgina hikoyada asliyat mazmun saqlanib qolishiga ishondik.

Abdulla Qahhor mahoratining oʻziga xos jihatlaridan yana biri, sodda odamlarning oʻsha paytlarda ham oʻzbek tilida soʻzlashganlaridagi nuqsonlarni tanqid qiladi, rus tilidan kirib qolgan soʻzlarni xuddi ona tilida, yaʼni oʻzbek tilida gapirayotgandek bemaqlol qoʻllash holatlari ustidan kuladi. Bunday vaziyatni biz yana oʻsha “ Mayiz yemagan xotin” hikoyasida uchratamiz. Hikoyada muallif “...«benavat» deb chiqib ketadi... “ degan jumlaning ishlatilishi. Yaʼni rus tilidagi “Vinovat” soʻzining buzib aytilgan shakli. Biz bu holatni matn ostida “他想说俄语 “benavat” 意思是“这都怪我”但是他说错了。” yaʼni “U ruschada “hammasi mening aybim” degan maʼnoni anglatuvchi “benavat” soʻzini aytmoqchi boʻldi, lekin xato qilib talaffuz qildi.” deya izoh berdik. Shunday qilsak hikoyada yozuvchi uslubi saqlanib qolinadi degan qarorga keldik. Abdulla Qahhor oʻzbek tilining naqadar boy ekanligini amalda, yaʼni oʻz hikoyalari orqali isbotlab berdi. Tilimizni nuqsonlarsiz saqlanib qolinishi uchun jonkuyar va hassos asl jonkuyar inson edi. Shu sabab boʻlsa kerak uning hikoyalarida, tilimizda ishlatilmay qolayotgan va ming afsuski bugungi kunda yoshlarimiz ham umuman bilmaydigan yoki bilsalarda, qoʻllamayotganlari uchun eslaridan chiqarib qolayotgan soʻzlarni ishlatadi. “Jallob” soʻzi [J.Ziyamuxamedov, D. Ismoilova 2025: 54] ham oʻzbek tili lugʻatidagi ana shunday nodir soʻzlardan biri. Biz bu soʻzning ekvivalenti xitoy tilida boʻlmaganligi uchun tarjimada “牛羊畜牧商人” (Qoramol va qoʻy, chorva mollari savdogari” tarzida berdik.

Albatta mazkur tarjimalarimiz ham kamchiliklardan holi boʻlmasligi mumkin. Ammo umid qilamizki, biz hikoyalarni tarjima qilishda harholda yozuvchimiz Abdulla Qahhor uslublaridan chetlashmadik va muallifning hikoya syujetini qanday bergan boʻlsa shundayligicha tarjimalarda saqlab qolishga harakat qildik. Zero, Abdulla Qahhordek ulugʻ bir insonni asarlarini jahonga tarannum etishda oʻzimizning zarra qadar hissamiz borligini his qilimoqlik tuygʻusi ham bizga olam-olam quvonch va baxt ulashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Ziyamuxamedov J. “Oʻzbekiston-Xitoy: tarixiy-madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalar rivoji” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yilning 16-noyabr.

[2] Erkinov Sodir. Navoiy «Farhod va Shirin»i va uning hiyosiy tahlili (Masʼul muharrir S.Gʻanieva). T., Fan», 1971.276 b.

- [3] Abdulla Qahhor hikoyalari. (tarjima) Xrestomatiya. / J.Ziyamuxamedov, D. Ismoilova. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 232 b.
- [4] <https://lex.uz/docs/-3338600>
- [5] <https://lex.uz/ru/docs/-3743182>